

TIJORAT BANKLARINI RESURS BAZASINI OSHIRISH ORQALI ULARNI TO'LOV QOBILIYATINI OSHIRISH IMKONIYATLARI

Baxromqulova Sarvinoz Ahror Qizi

Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi tinglovchisi

Tijorat banklari resurs bazasi nazariyasi erkin bozor iqtisodiyoti va banklararo raqobat muhiti sharoitida ular to'lov qobiliyatini ta'minlash maqsadida banklarning vakolatlari doirasida barqaror resurslarni jalb qilish va ularni samarali joylashtirishni ko'zda tutuvchi strategik yondashuv bo'lib hisoblanadi.

Buxgalteriya hisobining xalqaro standartlariga muvofiq bankning majburiyatlari va kapitali bo'yicha real qoldiq tijorat banklarining resurs bazasi yoki to'lov qobiliyatini anglatadi.

Strategiya bu uzoq muddatli istiqbolli maqsadlarni ko'zlaydi. Banklarda esa, joriy moliyaviy holatning to'lov qobiliyatini barqarorligi talab etilgan bir sharoitda resurs nazariyasining banklar faoliyatiga oid talqini operativ yondashuvni ham qiladi, lekin shu o'rinda ta'kidlash lozimki, tijorat banklari resurs bazasi mustahkamligini ta'minlash nafaqat resurslarni shakllantirish, balki ularni samarali joylashtirishni ham o'z ichiga oladi. Shuningdek, resurs nazariyasining asosiy kriteriyalaridan biri bu barqaror yoki strategik ahamiyatga ega resurs (sifat va miqdori jihatidan)lar hisoblansa, bu esa o'z navbatida, uzoq muddatli maqsadlarni ko'zlashni bildiradi. Shu bois, banklar tomonidan qisqa va uzoq muddatli maqsadlar belgilab olinishi lozim.

Iqtisodchi olim Piter C. Rouz tomonidan tijorat banklari to'lov qobiliyati hamda ularni resurslarini strategik boshqarish passivlar va fondlarni boshqarish strategiyalariga asoslanib, alohida olingan holda yoritib berilgan.

Uning fikricha, banklar ikkita aniq qo'yilgan maqsadga muvofiq, mablag'lar manbalarini restrukturizatsiya qiladilar:

1. Mablag'larni jalb qilish xarajatlarini minimallashtiradigan manbalardan foydalanish. Bu bankning foydasi va kapitalini oshirish uchun uning ixtiyorida yangi mablag'larning ko'p qolishiga imkon beradi.

2. Bank yuqori daromadli aktivlarni o'zida saqlashga imkon topa olishi uchun fondlar barqarorligining istalgan darajasini ta'minlovchi depozitlar, qarz mablag'lari va kapital miqdorlari o'rtasidagi optimal nisbatni tanlash.¹

Passivlarni boshqarish strategiyasining rivojlanishi hamda bir vaqtning o'zida risk va foiz stavkasi o'zgarishining o'sishi natijasida bugungi kunda banklar faoliyatida qo'llaniladigan fondlarni boshqarish strategiyasi deb nom olgan yondashuv yuzaga keldi. Bu aktiv va passivlarni boshqarishga nisbatan muvozanatlashgan yondashuvdir. Bu yondashuv doirasida quyidagi muhim vazifalar qo'yiladi:

¹ Rouz Piter S.Банковский менеджментю Пер.с.англ. со 2-го изд.-М.: Дело,1997.-С 478.

1. Bank o'z oldiga qo'ygan uzoq va qisqa muddatli maqsadlariga erishishi uchun u maksimal mumkin bo'lgan darajada ham aktivlar ham passivlar hajmini, strukturasi, foydasi yoki xarajatlarini nazorat qilish.

2. Aktivlar va passivlarni boshqarish ichki yaxlitlikda xarakterlanishi uchun bankning aktivlar ustidan nazorati passivlar ustidan nazorati bilan muvofiqlashtirish. Samarali muvofiqlashtirish aktivlar bo'yicha bank daromadi va majburiyatlar bo'yicha xarajatlar o'rtasidagi farqni (Spredni) maksimallashtirishga yordam berish.

3. Xarajat va daromad balansning ikki tomoniga – aktivga ham passivga ham kiritiladi. Bank siyosati aktivlar bo'yicha ham passivlar bo'yicha ham daromadni maksimallashtirish uchun ishlab chiqilish.

Shuningdek, tijorat banklari resurs nazariyasini tadqiq etish bank resurs bazasi mustahkamligini ta'minlashning ichki va tashqi tahlillariga ham asoslanadi.

O.I. Lavrushin tomonidan tijorat banklari resurs bazasini samarali tashkil etishda asosiy urg'u o'z kapitali va uning maqbul tarkibiy tuzilishiga qaratilib, banklar kapitalizatsiya darajasiga ta'sir etuvchi quyidagi ichki omillar sanab o'tiladi.²

- inflatsiya;
- iqtisodiyotdagi holat;
- kapitalni shakllantirishda xarajatlarning o'sib borishi;
- investorlarning kapitalga talabi;
- boshqaruvchilarning kapitalga talabi

Shuningdek, O.I. Lavrushin banklar kapitalizatsiya darajasiga ta'sir etuvchi quyidagi tashqi omillarni sanab o'tadi.³

- mustaqil transmilliy kapitalning vujudga kelishi;
- M oliyaviy globallashuv;
- Xalqaro kapital oqimining o'sishi;
- Xalqaro kapital bozori konyunkturasi.

Yuqorida ta'kidlab o'tilganlardan xulosa qilib, tijorat banklari resurs bazasi xususidagi nazariy qarashlar quyidagi kriteriyalarga asoslanadi:

- 1) Bankning qisqa va uzoq muddatli strategiyasini aniqlab olish;
- 2) Barqaror raqobatbardoshlikni ta'minlash;
- 3) Aktiv va passivlar bo'yicha samarali nazoratni ta'minlash;
- 4) Aktiv va passivlar bo'yicha optimal nisbatni ta'minlash;
- 5) Ichki omil va imkoniyatlarni tahlil qilish hamda baholash;
- 6) Barqaror mablag'lar manbalarini jalb qilish;
- 7) Mablag'larni samarali joylashtirish.

Banklar tomonidan barqaror mablag'lar manbalarini jalb qilish strategik yondashuvga asoslanadi. Barqaror mablag'lar bank uchun strategik jihatdan muhim

² Лаврушин О.И. Роль кредита и модернизация деятельности банков в сфере кредитования.- Монография/ коллектив авторов.-М. КНОРУС, 2012-С,117

³ Лаврушин О.И. Роль кредита и модернизация деятельности банков в сфере кредитования.- Монография/ коллектив авторов.-М. КНОРУС, 2012-С, 117

ahamiyat kasb etishi va keng tushunchalarga asoslanishini inobatga olgan holda ularni alohida tadqiq etish kerak deb hisoblaymiz. Bank resurs bazasi tarkibini diversifikatsiya qilgan holda barqaror mablag'lar manbalarini aniqlab olishi kerak. Barqaror mablag'lar manbalarini aniqlash orqali bank qaysi turdagi resurslarni jalb qilish kerakligi xususida yakdil xulosaga kelishi mumkin. Umuman olganda, bank barqaror mablag'lar manbalarini aniqlash quyidagi 5 ta asosiy kriteriyaga asoslanishi kerak deb o'ylaymiz:

1) Foiz (banklar xarajatlarini minimallashtiradigan, foiz riskini kamaytirishga xizmat qiluvchi resurslar).

2) Muddat (uzoq va fiksirlangan muddatga jalb qilingan mablag'lar manbalari).

3) Turi (jang'arma hisob-raqamlari, muddatli depozitlar, deposit sertifikatlari, muddatlari fiksatsiya qilingan nodepozit mablag'lar, qimmatli qog'ozlar).

4) Miqdor (foйда keltirish miqdori va kapital sig'imi yuqori bo'lgan mablag'lar).

5) Realizatsiya (erkin realizatsiya qilinadigan mablag'lar manbalari).

Shu o'rinda to'xtalib utish lozim ushbu bankning 2024-2026 yillarda rivojlanish strategiyasi asosiy tamoyillari sifatiga quyida tadbirlarni amalga oshirish zarur deb bilamiz.

Tijorat banklarining to'lov qobiliyatini oshirish uchun amalga oshirilishi mumkin bo'lgan bir qator amaliy takliflar va tavsiyalar quyidagi yo'nalishlarda rivojlantirilishi lozim:

Kredit portfelini diversifikatsiya qilish. Banklar o'z kredit portfelini diversifikatsiya qilish orqali risklarni kamaytirishi va to'lov qobiliyatini oshirishi mumkin. Mijozlar, sektorlar va geografik hududlar bo'yicha kreditlarni taqsimlash bankni ma'lum bir riskga nisbatan sezgir bo'lishdan saqlaydi. Shu bilan birga, turli kredit turlari, masalan, qisqa muddatli, uzoq muddatli yoki mikrokreditlar, foydalanuvchilarga kengroq xizmat ko'rsatish imkonini beradi.

Zahira va kapitalni oshirish. Banklar o'z kapitalini oshirib, ehtiyot fondlarini kuchaytirishlari zarur. Kapitalning yuqori darajasi bankning to'lov qobiliyatini mustahkamlaydi, chunki u bankning barcha majburiyatlarini bajarishga yetarli mablag'ni ta'minlaydi. Shuningdek, banklarga rezerv fondlarini rivojlantirish va xavfga qarshi ta'minotlarni oshirish tavsiya etiladi.

Yuqori sifatli aktivlarni jalb qilish. Banklar to'lov qobiliyatini oshirish uchun faqat samarali va barqaror aktivlar bilan ishlashlari lozim. Aktivlarni tanlashda risklarni baholash, likvidlikni ta'minlash va kelajakdagi foydalilikni inobatga olish muhimdir. Masalan, banklar qimmatli qog'ozlar bozorida ishtirok etish va boshqa yuqori daromadli aktivlar orqali qo'shimcha daromadlarni jalb qilishlari mumkin.

Yangi moliyaviy texnologiyalarni joriy etish. Banklar to'lov qobiliyatini oshirish uchun yangi moliyaviy texnologiyalarni joriy etishlari kerak. Fintech texnologiyalarining integratsiyasi banklarga tezkor va samarali operatsiyalarni amalga oshirish, mijozlarga qulay xizmatlar ko'rsatish imkonini beradi. Elektron

to'lov tizimlari, mobil banking va onlayn kreditlash kabi texnologiyalarni qo'llash to'lov qobiliyatini oshirishi mumkin.

Risklarni boshqarish tizimini takomillashtirish. Banklar to'lov qobiliyatini oshirish uchun zamonaviy risklarni boshqarish tizimlarini joriy etishlari zarur. Kredit, bozor, likvidlik va operatsion risklarni boshqarish uchun yanada murakkab tahlil metodlarini, masalan, stress-testlarni qo'llash, bankning mustahkamligini ta'minlaydi. Risklarni boshqarish jarayonlarini avtomatlashtirish va tizimli monitoringni amalga oshirish orqali banklar xavf-xatarlarni oldindan aniqlab, ularga mos javoblar berishi mumkin.

Mijozlarga sifatli xizmatlar ko'rsatish. Mijozlarga ko'rsatiladigan xizmatlarning sifatini oshirish bankning to'lov qobiliyatini oshirishga yordam beradi. Mijozlarning talablarini inobatga olgan holda, yangi moliyaviy mahsulotlar va xizmatlar ishlab chiqish, shuningdek, xizmatlar sifatini yaxshilash banklar uchun qo'shimcha daromad keltiradi va mijozlar bazasini kengaytiradi.

Soliq siyosatini optimallashtirish. Banklar to'lov qobiliyatini oshirish uchun soliqqa oid xarajatlarni kamaytirish zarur. Soliq siyosatining optimallashtirilishi, masalan, amaldagi soliq imtiyozlari va banklarning foydalariga qo'llaniladigan soliq stavkalarini kamaytirish orqali banklar moliyaviy holatini yaxshilashi mumkin.

Ko'p daromadli manbalarni yaratish. Banklar o'z faoliyatida faqat kreditlash emas, balki boshqa daromad manbalarini ham rivojlantirishlari lozim. Mijozlarga valyuta ayirboshlash, investitsiya xizmatlari, sug'urta va boshqa qo'shimcha xizmatlar ko'rsatish bankning to'lov qobiliyatini oshirishga yordam beradi.

Ushbu takliflar va tavsiyalarni amalga oshirish banklar uchun nafaqat to'lov qobiliyatini oshirish, balki barqaror moliyaviy tizimni shakllantirishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bu orqali tijorat banklari o'z faoliyatini yanada samarali yuritib, iqtisodiyotning rivojlanishiga hissa qo'shishlari mumkin.

Agar fikrimiz barqaror mablag'lar manbalari bo'lib hisoblangan qimmatli qog'ozlarga borib taqalsa, bunda ikkilamchi qimmatli qog'ozlar bozorining rivoji, uning rivoji mexanizmiga ta'sir etuvchi Markaziy bank pul-kredit siyosatining samaradorligi hisoblanadi. Tijorat banklari resurs bazasi va uning to'lov qobiliyati mustahkamligini ta'minlash nazariyasining asosiy tamoyillari va xulosalari umumiy yondashuvlarga asoslangan bo'lishi lozim. Yuqoridagilar bevosita tijorat banklari to'lov qobiliyatini yanada oshirishga xizmat etishi lozim.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni. “O‘zbekiston”, 2023.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi “O‘zbekiston-2030” Strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risidagi PF-158-son Farmoni.
3. Abduvaxidov F.T., Umarov Z.A., Djuraev K.N. Banklarda buxgalteriya hisobi. O‘quv qo‘llanma. –T.: TDIU, 2010. –224 b.